

«Omadli o'tkazma»

AKSIYASI QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar ommaviy taklif bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan. Ular "Omadli o'tkazma" aksiyasining (bundan buyon matnda Aksiya deb yuritiladi) shartlari va qoidalarini, uning ishtirokchilarini aniqlash tartibini, Aksiya tashkilotchisi va ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan boshqa shartlarni belgilaydi.

1.2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yin emas.

1.3. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy.

1.4. Aksiya "UZCARD" va "Elcard" (Qirg'iziston) bank kartalari o'rtasida transchegaraviy P2P o'tkazma xizmatlarini rivojlantirishga, UZCARD to'lov tizimi (bundan buyon matnda UZCARD TT deb yuritiladi) foydalanuvchilarining qulayligi va faolligini oshirishga va ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan shartlar va qoidalarga muvofiq sovrinli o'yinlarni taklif qilishga qaratilgan.

1.5. Aksiya "Yagona umumrespublika protsessing markazi" AJ (bundan buyon matnda Tashkilotchi deb yuritiladi) tomonidan tashkil etilgan.

1.6. Tashkilotchining aloqa ma'lumotlari:

1.7. Telefon raqami: +998 (71) 200-28-28;

1.8. Yuridik manzili: 100011, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 78;

elektron pochta: help@uzcard.uz;

veb-sayt: www.uzcard.uz.

1.9. Aksiya Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladi.

1.10. Aksiyada UZCARD TT bank kartalari egalari (keyingi o'rinlarda — Ishtirokchilar) ishtirok etishi mumkin. Bunga kobeydjing kartalar (6262****, 5440****), NFC qo'llab-quvvatlovchi yangi turdagi 5614*** indeksli kartalar, 8600**** indeksli klassik kartalar, shuningdek virtual UZCARD TT kartalari (keyingi o'rinlarda — «UZCARD» TT bank kartasi) kiradi.

1.10.1. Yuridik shaxs bo'lgan UZCARD TT bank kartasi egalari, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va xorijiy fuqarolar Aksiyada ishtirok etishlari mumkin emas va ishtirokchi bo'la olmaydilar.

1.11. Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, farzandlari, ota-onalari, aka-uka va opa-singillari) ham Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

1.12. Aksiyada faqat O'zbekiston Respublikasining qonuniy vakolatli fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.

1.13. Aksiya 2025-yil 15-dekabr kuni soat 00:00 dan 2026-yil 31-yanvar kuni soat 23:59:59 gacha (bundan keyin Aksiya davri deb yuritiladi) davom etadi.

1.14. Aksiya muddati Tashkilotchining xohishiga ko'ra uzaytirilishi mumkin. Agar Aksiya muddati uzaytirilsa, Tashkilotchi Tashkilotchining ommaviy onlayn resurslarida va www.uzcard.uz veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali ishtirokchilarni xabardor qiladi.

2. AKSIYANING SOVRIN FONDI

2.1. Aksiyaning sovrin fondi Tashkilotchining pul mablag‘lari hisobidan 140 000 000 (bir yuz qirq million) so‘m miqdorida shakllantiriladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

2.1.1. 10 (o‘n) dona har biri 5 000 000 (besh million) so‘mlik pul sertifikatlari;

2.1.2. 3 (uch) dona 80 000 000 (sakson million) so‘m nominalga ega iPhone 17 Pro 256 Gb telefoni;

2.2. Tashkilotchi Aksiyaning Sovrin fondini o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi, jumladan, sovrinlar soni, komplektatsiyasi, turi va boshqa xususiyatlarini o‘zgartirish, shuningdek, ushbu Qoidalarga kiritilmagan boshqa sovrinlarni Aksiyaga qo‘shish huquqiga ega.

2.3. Aksiyaning sovrinlari ko‘rinishi, o‘lchami, tasviri, qadoq rangi va ushbu Qoidalarga muvofiq aniq belgilanmagan boshqa xususiyatlar reklama materiallarida keltirilgan tasvirlar yoki Ishtirokchilarning shaxsiy kutganlariga mos kelmasligi mumkin. Aksiya sovrinlari sifatiga, ishlashga yaroqliligiga va boshqa xususiyatlariga tegishli javobgarlik ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi/ta‘minlovchiga yuklanadi.

2.4. Sovrin fondini natural shakldan pul ekvivalentiga yoki ishtirokchilar/g‘oliblar/sertifikat egalari xohishiga ko‘ra boshqa natural sovrinlarga almashtirish Tashkilotchi tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va amalga oshirilmaydi.

3. AKSIYANI O‘TKAZISH TARTIBI

3.1. Aksiya ishtirokchisi maqomini olish shartlari (aksept):

3.1.1. «UZCARD» TT bank kartalari egalari quyidagi hollarda Ishtirokchi bo‘ladi:

– Aksiya davrida o‘zlariga tegishli bank kartasidan quyidagi to‘lov xizmatlari provayderlarining to‘lov ilovalari orqali: Xazna («Xalq banki» ATB), Mavrid («Mikrokreditbank» ATB), Unired («Universalbank» ATB) bir martalik 500 000 (besh yuz ming) so‘m yoki undan yuqori miqdordagi o‘tkazma amalga oshirilganda;

– ushbu Qoidalarning talablariga rioya qilingan taqdirda.

3.1.2. Aksiyada «UZCARD» bank kartalaridan «Elcard» bank kartalariga amalga oshiriladigan transchegaraviy pul o‘tkazmalari (P2P) bo‘yicha to‘lovlar ishtirok etadi.

3.1.3. Ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda amalga oshirilgan har bir, bir martalik o‘tkazma uchun Ishtirokchiga 1 (bir) ta imkoniyat beriladi. To‘lov miqdori (summasi) beriladigan imkoniyatlar soniga ta‘sir qilmaydi.

3.1.4. Berilgan shanslar sonini Telegram-botda tekshirish mumkin: https://t.me/p2p_uzcard_bot

3.1.5. Aksiya yakunlanganidan keyingi 5 (besh) kun ichida jamlangan shanslarga noyob ID-kodlar birlashtiriladi va aynan shu ID-kodlar orasida Sovrin fondi o‘ynaladi.

3.2. Aksiya g‘oliblarini aniqlash:

3.2.1. Sovrinlar tirajida barcha noyob ID-kodlar ishtirok etadi.

3.2.2. Aksiya bo‘yicha sovrinlarni o‘ynash 2.1-bandda ko‘rsatilgan ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

3.2.3. Aksiyada g‘olib bo‘lgan noyob ID-kodni aniqlash jarayoni www.random.org saytida barcha noyob ID-kodlar ro‘yxatini tasodifiy tanlash funksiyasini ishga tushirish orqali Komissiya a‘zolaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

3.2.4. G'olib ID-kodlar aniqlangandan so'ng, Tashkilotchi 5 (besh) kun ichida natijalarni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida va rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

3.2.5. Sovrin ushbu Qoidalarga muvofiq «UZCARD» TT bank kartasining haqiqiy egasiga (mulkiy egasiga) rasmiylashtiriladi va topshiriladi.

3.3. Komissiya:

3.3.1. Aksiya sovrinlarini o'ynash tartibini ta'minlash, jarayonning xolis va shaffof o'tishini kafolatlash maqsadida Tashkilotchi tomonidan kamida 3 (uch) nafar a'zodan iborat komissiya tuziladi.

3.3.2. Komissiya tarkibiga Tashkilotchining xodimlari ham, uchinchi shaxslar ham kiritilishi mumkin. Bir xil shaxs Komissiya tarkibiga bir necha bor kiritilishi mumkin.

3.4. Translyatsiya:

3.4.1. Sovrinlar tiraji Tashkilotchining Instagram'dagi sahifasida jonli efirda translyatsiya qilinadi.

3.4.2. Translyatsiyaning aniq vaqti Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida va ushbu Qoidalarning 1.6-bandida ko'rsatilgan rasmiy veb-saytda, tiraj o'tkazilishidan kamida 3 (uch) ish kuni avval e'lon qilinadi.

4. AKSIYA SOVRINLARINI QABUL QILISH SHARTLARI VA TARTIBI

4.1. Har bir Aksiya Ishtirokchisi mustaqil ravishda www.uzcard.uz saytida Aksiya g'oliblari ro'yxati bilan tanishishi shart.

4.2. Aksiya g'oliblariga sovrinlarni topshirish Aksiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni davomida amalga oshiriladi.

4.3. Aksiya g'oliblari bilan bog'lanish uchun Tashkilotchi vakillari «UZCARD» TT bank kartalariga birlashtirilgan abonent raqamlari orqali aloqaga chiqadi.

4.4. Agar Tashkilotchi vakillari biror sababga ko'ra Aksiya g'olibi bilan bog'lana olmasa, g'olib 2026-yil 27-fevralga qadar (shu sananing o'zida ham) Call-markaz orqali Tashkilotchi vakillariga mustaqil ravishda murojaat qilib, zarur ma'lumotlar va qayta aloqa uchun telefon raqamini taqdim etishi shart. Agar Ishtirokchi ko'rsatilgan muddatda sovrinni olish uchun kelmasa, g'oliblik natijasi bekor qilinadi va u sovrin olish huquqidan mahrum etiladi.

4.5. Sovrin yutgan g'olib ushbu Qoidalarning 4.13-bandida ko'rsatilgan barcha hujjatlarni Tashkilotchiga taqdim etishi shart.

4.6. Sovrin faqat Aksiyada g'olib bo'lgan bank kartasi egasiga yoki uning qonuniy vakiliga beriladi. Tashkilotchi bank kartasi egasi yoki uning qonuniy vakili bo'lmagan shaxsga sovrin berishni rad etish huquqiga ega. Sovrin qayta talab qilib olinmaydi, g'oliblik natijasi bekor qilinadi va shaxs sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ishtirokchining yoki bank kartasining ro'yxat ma'lumotlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holatlarda Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishdan chetlashtiriladi, agar u g'olib deb topilgan bo'lsa — sovrin olish huquqidan mahrum etiladi.

4.7. Ushbu Qoidalarning 4.4-bandida ko'rsatilgan muddatda sovrin olish uchun kelmaslik g'olibning sovrindan voz kechgan deb hisoblanishiga olib keladi. Bu holda g'oliblik natijasi bekor qilinadi va u sovrin olish huquqidan mahrum etiladi.

4.8. Agar g'olib ushbu Qoidalarning 4.4-bandida ko'rsatilgan muddatda 4.13-bandda nazarda tutilgan sovrinni olish uchun zarur ma'lumotlarni Tashkilotchiga taqdim etmasa, sovrin g'olib

tomonidan talab qilinmagan deb hisoblanadi. Tashkilotchi uni berishni rad etish huquqiga ega. Sovrin qayta talab qilib olinmaydi.

4.9. Aksiya g'oliblarining sovrinlarni olishdan bosh tortishi yoki har qanday sabablarga ko'ra ularni talab qilmasligi holatida, Tashkilotchi Aksiya sovrinlari egalari umumiy sonini mos ravishda kamaytirish huquqiga ega. Bunday sovrinlar g'oliblarga berilmaydi va Tashkilotchi ularni o'z ixtiyoriga ko'ra ishlatadi.

4.10. Aksiya g'olibi ushbu Qoidalardagi shartlarni bajarmagan taqdirda, Tashkilotchi g'olibga sovrin berishni rad etish huquqiga ega.

4.11. Sovrinlar natura shaklida beriladi va faqat alohida hollarda Tashkilotchining qaroriga ko'ra pul ekvivalenti bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Bir sovrinni boshqasi bilan almashtirish yoki bir nechta sovrinlardan tanlashga yo'l qo'yilmaydi.

4.12. Sovrin topshirilganda jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni Tashkilotchi to'laydi.

4.13. Sovrinni olish uchun g'olib Tashkilotchining vakiliga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- Asl pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjat;
- JSHSIR;
- Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan sovrinni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi;
- Bank karta raqami;
- Sovrinni olganlik haqida yozma tilxat va jismoniy shaxs daromad solig'ini Tashkilotchi hisobidan to'lashga rozilik;
- Foydalanuvchining kartasi raqami, MFO raqami va tranzit hisob raqami ko'rsatilgan bankdan olinadigan ko'chirma.

4.14. Aksiya g'olibi Tashkilotchiga ushbu Qoidalarning 4.13-bo'limida ko'rsatilgan barcha hujjatlarni, shuningdek, Tashkilotchi Aksiya shartlari va amaldagi qonunchilikni to'g'ri bajarish uchun zarur deb hisoblagan boshqa hujjatlarni ushbu Qoidalarning 4.2-bo'limida belgilangan muddatlarda taqdim etishi shart.

4.15. Sovrinlar Tashkilotchining Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 78-uyda joylashgan ofisida topshiriladi.

4.16. Sovrinlarga bo'lgan huquqlar va ular uchun javobgarlik yuzasidan barcha tavakkallar sovrin oluvchiga sovrinlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi Tashkilotchi va Aksiya g'oliblari tomonidan imzolangan paytdan boshlab o'tadi. Bu jumladan kafolat majburiyatlarini bajarish, kafolat muddati talablariga rioya qilish va sovrin sifatida berilayotgan moddiy boyliklarga tegishli texnik hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

4.17. Naqd pul mukofotlari Aksiya g'oliblariga o'yinda g'olib bo'lgan ishtirokchilarning UZCARD bank kartalariga mablag'larni o'tkazish orqali beriladi.

5. AKSIYANING QO'SHIMCHA SHARTLARI

5.1. Aksiya o'tkazilishi haqida barcha ma'lumotlar aksiya boshlanishidan oldin www.uzcard.uz saytida o'zbek va rus tillarida joylashtiriladi, boshqa til bo'yicha ma'lumotlar qo'shimcha tarzda ko'rsatiladi. Aksiya yakunlanganidan so'ng, aksiya haqida ma'lumotlarga kirish huquqi www.uzcard.uz saytida 6 (olti) oy davomida saqlanadi.

5.2. Aksiya Tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:

- 5.2.1. Aksiya ishtirokchilarining aksiya shartlari yoki Tashkilotchi tomonidan www.uzcard.uz saytida joylashtirilgan g'oliblar ro'yxati bilan tanisha olmasligi;
- 5.2.2. Aksiya bo'yicha sovrinlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar/ hujjatlarning ishtirokchilarning o'z aybi bilan yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra o'z vaqtida olinmasligi yoki umuman olinmasligi;
- 5.2.3. Ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiya ishtirokchilari zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi yoki vaqtdan oldin bajarilishi;
- 5.2.4. Aksiya g'oliblarining sovrinlarni o'z vaqtida olmasligi yoki ularni olishdan bosh tortishi.
- 5.3. Aksiyada ishtirok etar ekan, Ishtirokchi ushbu Qoidalar bilan to'liq tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi hamda quyidagilarga o'z roziligini beradi:
- 5.3.1. Aksiya g'oliblarini ushbu Qoidalarga muvofiq belgilangan tartibda aniqlashga;
- 5.3.2. Aksiya davomida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq holda uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilotchiga nisbatan qo'yilgan har qanday talablar yuzasidan, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil hal qilish va Tashkilotchini uchinchi shaxslar da'volaridan ozod qilish majburiyatini zimmasiga oladi;
- 5.3.3. G'olib bo'lganda, Ishtirokchi haqida ma'lumotlarni www.uzcard.uz saytida joylashtirishga;
- 5.3.4. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan maxsus va biometrik ma'lumotlarni qayta ishlashga, hamda Aksiya bo'yicha Tashkilotchining majburiyatlarini bajarish maqsadida shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishga;
- 5.3.5. Aksiyada ishtirok etish haqida reklama intervyularida qatnashish, jumladan radio va televideniye hamda boshqa ommaviy axborot vositalari uchun intervyular berish, shuningdek Tashkilotchi va/yoki Tashkilotchining topshirig'i bo'yicha uchinchi shaxslar tomonidan Ishtirokchilarning foto va video tasvirga olinishi. Shuningdek, Ishtirokchidan qo'shimcha rozilik olinmasdan va ushbu foydalanish uchun biror to'lov to'lanmasdan, yaratilgan foto va video materiallardan foydalanishga hamda bunday materiallarda mualliflik yoki turdosh huquqlarning (hatto material reklama xarakterida bo'lsa ham) yuzaga kelishiga rozilik berilgan deb hisoblanadi.
- 5.4. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga muvofiq ko'zda tutilgan holatlardan tashqari boshqa Ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar olib borish yoki boshqa shaklda muloqot qilish majburiyatini olmaydi.
- 5.5. Agar firibgarlik faoliyati, til biriktirish, ma'lumotlarni chalg'itishga urinish, Tashkilotchi yoki uning vakillari bilan yoki sovrinni olishdan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kelishuvlarning mavjudligi yoki alohida Ishtirokchi bilan yoki Ishtirokchilar guruhining birgalikdagi ishtiroki holatida boshqa har qanday harakatlar aniqlansa, Tashkilotchi qur'a natijalarini bir tomonlama qayta o'rnatish va Aksiya uchun g'olibni takroriy tanlashni e'lon qilish huquqiga ega.
- 5.6. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiya Qoidalariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo'lib, tegishli ma'lumotlarni Tashkilotchining rasmiy saytida (www.uzcard.uz) joylashtiradi. Aksiya ishtirokchilari Qoidalar yangilanishini mustaqil ravishda kuzatib borishlari va yuqorida ko'rsatilgan sayt orqali o'zgarishlarni tekshirishlari shart. Bunday o'zgartirishlar e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar bilan boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa.
- 5.7. Tashkilotchi, yig'ilgan ma'lumotlarni to'plash va ulardan keyingi foydalanish jarayonida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va bank siriga oid

qonunchilik talablariga to'liq rioya etilishini kafolatlaydi. Ma'lumotlarni boshqa shaxslarga taqdim etish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu Qoidalarga muvofiq bajariladigan har qanday harakat Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligi sifatida qabul qilinadi.

5.8. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisining xatolari oqibatida yuzaga kelgan biron-bir natija yoki zarar uchun, shu jumladan (ammo ular bilan cheklanmagan holda) ko'rilgan yo'qotishlar uchun javobgar emas.

5.9. Tashkilotchi o'z xohishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalar asosida, Aksiyada ishtirok etish uchun hujjatlarni soxtalashtirgan yoki bunday soxtalashtirishdan manfaat ko'rgan, yoki ushbu Qoidalarni buzgan holda harakat qilgan, yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini buzish niyatida harakat qilgan har qanday Ishtirokchining Aksiyada keyingi ishtirokini cheklash huquqiga ega.

5.10. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiyada firibgarlikning oldini olishga qaratilgan qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqiga ega. Har qanday nohalol harakat aniqlanganda, Ishtirokchining natijalari bekor qilinadi va u Aksiyada keyingi ishtirokdan chetlashtiriladi.

5.11. Tashkilotchi mavjud texnik imkoniyatlar hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalar talablari asosida Aksiya ishtirokchisining halolligini mustaqil baholaydi.

5.12. Tashkilotchi har qanday fors-major holatlarida, jumladan tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, har qanday turdagi harbiy harakatlar, blokada, pandemiya bilan bog'liq karantin choralarining joriy etilishi, Aksiya hududida amal qilayotgan qonunchilikka kiritilgan muhim o'zgarishlar hamda Tashkilotchining nazoratidan tashqaridagi boshqa holatlar yuz berganda javobgar emas. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.

5.13. Ushbu Qoidalarga kiritilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

5.14. Tomonlarning javobgarlik choralari, shuningdek, nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq belgilanadi. Aksiya bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Agar kelishuvga erishishning iloji bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining tegishli sudida ko'rib chiqiladi. Da'volarni ko'rib chiqish tartibiga rioya qilish majburiydir.